



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 42 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili.....	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarining qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	

AUTIZM SPEKTRI BUZILISHI BO'LGAN BOLALARDA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN KORREKSION ISH TAMOYILLARI

Karimova Zulfiya Abduraxmanovna

Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0008-8370-8771

Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi

Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan asosiy korreksion ish tamoyillari yoritilgan. Tadqiqotda kompleks ta'sir, tizimlilik, oddiydan murakkabga o'rgatish, ko'rgazmalilik, differensial va individual yondashuv hamda nutqning psixik rivojlanishning boshqa tomonlari bilan bog'liqligi tamoyillarining mazmuni tahlil qilingan. Ushbu tamoyillarning kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilib, ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: autizm spektri buzilishi, kommunikativ ko'nikmalar, korreksion ish, logopediya, maxsus pedagogika, ko'rgazmalilik.

Abstract: This article covers the main principles of correctional work used in the formation of communicative skills in children with autism spectrum disorders. The study analyzes the content of the principles of complex impact, systematicity, teaching from simple to complex, demonstrativeness, differential and individual approach, as well as the relationship of speech with other aspects of mental development. The importance of these principles in the development of communicative skills is revealed and examples of their application in practice are given.

Key words: autism spectrum disorder, communication skills, correctional work, speech therapy, special pedagogy, demonstrativeness.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные принципы коррекционной работы, применяемые при формировании коммуникативных навыков у детей с расстройствами аутистического спектра. Анализируется содержание принципов комплексного воздействия, систематичности, обучения от простого к сложному, демонстративности, дифференцированного и индивидуального подхода, а также взаимосвязь речи с другими аспектами умственного развития. Раскрывается важность этих принципов в развитии коммуникативных навыков и приводятся примеры их применения на практике.

Ключевые слова: расстройство аутистического спектра, коммуникативные навыки, исправительная работа, логопедия, специальная педагогика, демонстративная речь.

KIRISH

Bugungi kunda autizm spektri buzilishi (ASB) bo'lgan bolalar sonining ortib borayotgani ularning ta'lim-tarbiyasi va ijtimoiy moslashuvi masalalariga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Autizmli bolalarda kuza-tiladigan asosiy qiyinchiliklardan biri kommunikativ faoliyatning yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Ushbu holat ularning atrofdagilar bilan muloqotga kirishishi, o'z ehtiyoj va istaklarini ifodalashi hamda jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish autizmli bolalarni korreksion-pedagogik qo'llab-quvvatlashning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunda samarali natijaga erishish korreksion ishlarni ilmiy asoslangan tamoyillar asosida tashkil etishni talab qiladi. Kompleks yondashuv, tizimlilik, izchillik, ko'rgazmalilik hamda bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish kommunikativ rivojlanish jarayonining samaradorligini oshiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi maxsus pedagogika, logopediya va maxsus psixologiya yo'nalishlarida keng o'rganilgan ilmiy muammolardan biridir. Tadqiqotchilar tomonidan autizmli bolalarda nutqiy va ijtimoiy kommunikatsiya buzilishlarining kelib chiqish sabablari, ularni korreksiya qilish metodlari hamda samarali pedagogik yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

K.S. Lebedinskaya bolalar autizmini rivojlanishning murakkab buzilishi sifatida tavsiflab, unda muloqotga kirishish, emotsional aloqa o'rnatish va nutqiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari yetakchi belgilar ekanligini ko'rsatadi. Muallifning ta'kidlashicha, autizmli bolalarda kommunikativ faoliyatni rivojlantirish faqat nutqni shakllantirish bilan cheklanmay, balki emotsional munosabatlarni, ijtimoiy motivatsiyani va atrofdagilar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi lozim [1, 28-34-b.].

O.S. Nikolskaya, E.R. Baenskaya va M.M. Libling autizmli bolalarga yordam ko'rsatishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqib, korreksion ishning samaradorligi tizimli va kompleks yondashuvga bog'liqligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda bolaning individual rivojlanish sur'ati, qiziqishlari va emotsional holatini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Mualliflar vizual tayanchlardan foydalanish, o'yin faoliyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning samarali vositalari ekanligini ko'rsatganlar [3, 67-89-b.].

T.I. Morozova autizmli bolalarda nutq rivojlanishidagi buzilishlarni korreksiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqib, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarurligini qayd etadi. Muallif dastlab oddiy kommunikativ vazifalarni o'rgatish, keyinchalik esa dialogik nutq va ijtimoiy muloqotni rivojlantirishni tavsiya qiladi. Shuningdek, nutqni rivojlantirish jarayonida ota-onalar va mutaxassislarining uzviy hamkorligi muhim omil sifatida e'tirof etiladi [2, 107-123-b.].

L.G. Nuriyeva autizmli bolalarda nutqni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda kommunikativ ehtiyojni shakllantirishni asosiy vazifa sifatida ko'rsatadi. Tadqiqotchining fikricha, bolada muloqot qilishga ichki ehtiyoj paydo bo'lmaguncha nutq vositalaridan samarali foydalanish qiyin bo'ladi. Shu sababli logopedik mashg'ulotlarda vizual vositalar, predmetlar, piktogrammalar va kundalik vaziyatlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi [4, 18-36-b.].

T. Piters autizmli bolalarni o'qitishda nazariy bilimlarni amaliy pedagogik faoliyat bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslaydi. Muallif autizmli bolalar axborotni asosan vizual tarzda qabul qilishlarini hisobga olib, ko'rgazmalilik tamoyili korreksion ishning asosiy metodik talabi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, mashg'ulotlarning qat'iy rejalashtirilishi, vazifalarning izchilligi va oldindan bashorat qilinadigan ta'lim muhiti bolaning kommunikativ faolligini oshirishga xizmat qiladi [5, 112-136-b.].

A.P. Fedorov tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv-xulq-atvor yondashuvi autizmli bolalarda moslashuvchan xulq-atvor va kommunikativ reaksiyalarni shakllantirishda samarali metodlardan biri sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv ijobiy mustahkamlash, vaziyatli o'qitish va bosqichma-bosqich murakkablashtirish tamoyillariga asoslanib, kommunikativ xatti-harakatlarni barqaror rivojlantirish imkonini beradi [6, 54-76-b.].

Shunday qilib, tahlil qilingan ilmiy manbalarda autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish korreksion-pedagogik ishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Olimlarning umumiy xulosalariga ko'ra, kompleks ta'sir, tizimlilik, ko'rgazmalilik, individual va differensial yondashuv tamoyillariga asoslangan korreksion ish kommunikativ rivojlanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, maxsus pedagogika, logopediya va psixologiya sohalarida ishlab chiqilgan korreksion ish tamoyillari nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni baholandi. Tadqiqot jarayonida kompleks ta'sir, tizimlilik, oddiydan murakkabga o'rgatish, ko'rgazmalilik, differensial va individual yondashuv tamoyillarining amaliy qo'llanilishiga doir ilmiy manbalar asosida xulosalar umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan korreksion ish umumiy pedagogika, korreksion pedagogika va maxsus psixologiya fanlarida ishlab chiqilgan ilmiy tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar kompleks ta'sir, tizimlilik, oddiydan murakkabga o'rgatish, ko'rgazmalilik, differensial va individual yondashuv hamda nutqning psixik rivojlanishning boshqa tomonlari bilan uzviy bog'liqligini hisobga olishni o'z ichiga oladi. Mazkur tamoyillarga amal qilinishi autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni samarali shakllantirish, ularni kundalik hayotda qo'llash va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kompleks ta'sir tamoyili korreksion-pedagogik jarayonda bola bilan ishlovchi barcha mutaxassislar hamda ota-onalarning o'zaro hamkorligini nazarda tutadi. Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda yangi shakllangan kommunikativ ko'nikmalarni bir vaziyatdan boshqasiga ko'chirish qiyin kechadi. Bola mashg'ulot davomida logoped yoki defektolog bilan muloqotda o'zlashtirgan nutqiy harakatni kundalik hayotda mustaqil ravishda qo'llay olmasligi mumkin. Shu sababli psixolog, logoped, defektolog, tarbiyachi, o'qituvchi va ota-onalarning yagona maqsad asosida hamkorlik qilishi kommunikativ ko'nikmalarning turli ijtimoiy vaziyatlarda mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Muvofiqlashtirilgan pedagogik ta'sir bolada shakllanayotgan nutqiy va ijtimoiy tajribani kengaytiradi hamda uning muloqot qilish imkoniyatlarini oshiradi.

Tizimlilik tamoyili kommunikativ ko'nikmalarni muntazam, izchil va rejalashtirilgan tarzda rivojlantirish zarurligini anglatadi. Autizmli bolalar kundalik hayotda zarur bo'lgan muloqot ko'nikmalarini ko'pincha tabiiy ravishda egallay olmaydilar. Shu bois korreksion ish aniq maqsad va ketma-ketlik asosida tashkil etilishi lozim. Dastlab bolaning eng sodd kommunikativ ehtiyojlarini ifodalashga xizmat qiladigan ko'nikmalar shakllantiriladi. Keyinchalik e'tiborni jalb qilish, iltimos bildirish, savollarga javob berish, savol berish va dialogni davom ettirish kabi murakkabroq kommunikativ faoliyat bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Muntazam mashqlar va takrorlashlar orqali hosil qilingan ko'nikmalar asta-sekin barqarorlashib, bolaning kundalik hayotida faol qo'llanila boshlaydi.

Oddiydan murakkabga o'rgatish tamoyili tizimlilik tamoyilining mantiqiy davomi hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko'ra kommunikativ ko'nikmalar bosqichma-bosqich murakkablashtirib boriladi. Masalan, bola avval iltimosni bitta so'z orqali ifodalashni o'rganadi, keyinchalik so'z birikmasi, oddiy gap va nihoyat murojaat hamda muloyimlik shakllari qo'llangan kengaytirilgan gaplardan foydalanishga o'tadi. Xuddi shuningdek, rasmlar asosida hikoya qilish ko'nikmasi ham ketma-ket rivojlantiriladi. Dastlab bola rasmda tasvirlangan predmetlarni sanaydi, keyin ular bilan bog'liq harakatni ifodalaydi, so'ng esa harakatni qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirib, grammatik jihatdan to'liq gaplar tuzishni o'rganadi. Bunday izchillik nutqiy faoliyatning tabiiy rivojlanishini ta'minlaydi va bolaning og'zaki muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ko'rgazmalilik tamoyili autizmli bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda vizual tayanchlardan keng foydalanishni nazarda tutadi. Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni tushunish, ramziy belgilarni idrok etish va ularning ma'nosini anglashda qiyinchiliklar kuzatilishi sababli turli ko'rgazmali vositalar ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Predmetlar, rasmlar, fotosuratlar, piktogrammalar va boshqa vizual materiallar bolaning ehtiyojlarini ifodalashiga hamda nutqni tushunishiga yordam beradi. Masalan, bola kerakli buyumni ayta olmasa, uning tasviri tushirilgan piktogramma orqali o'z istagini bildirishi mumkin. Mutaxassis esa ushbu vaziyatdan foydalanib, zarur nutqiy modelni namoyish etadi va bolani uni takrorlashga undaydi. Vizual tayanchlardan yuqori rivojlanish darajasiga ega bolalar bilan ishlashda ham samarali foydalaniladi. Masalan, kun davomida sodir bo'lgan voqealar aks etgan fotosuratlar yordamida bolaning voqealarni izchil bayon qilishi, his-tuyg'ularini ifodalashi yoki savollarga javob berishi osonlashadi. Shuningdek, emotsional holatlarni ifodalovchi piktogrammalar hamda savol so'zlari yozilgan kartochkalar kommunikativ faoliyatni rivojlantirishning samarali vositalari sifatida qo'llaniladi (1-jadval).

1-jadval: Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari

Korreksion ish tamoyili	Mazmuni	Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati
Kompleks ta'sir	Logoped, psixolog, defektolog, pedagog va ota-onalarning o'zaro hamkorligi asosida korreksion ishlarni tashkil etish.	Shakllangan kommunikativ ko'nikmalarni turli ijtimoiy vaziyatlarda qo'llash va mustahkamlashni ta'minlaydi.
Tizimlilik	Mashg'ulotlarni muntazam, izchil va reja asosida olib borish.	Kommunikativ ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirib, ularning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.
Oddiydan murakkabga o'rgatish	Sodda nutqiy birliklardan murakkab gap va dialogik nutqqa bosqichma-bosqich o'tish.	Nutqning izchil rivojlanishiga hamda muloqot imkoniyatlarining kengayishiga yordam beradi.



Ko'rgazmalilik	Rasmlar, piktogrammalar, predmetlar va vizual vositalardan foydalanish.	Nutqni tushunishni yengillashtiradi, ehtiyojlarni ifodalash va muloqotni faollashtiradi.
Differensial yondashuv	Korreksion metodlarni bolaning kommunikativ rivojlanish darajasiga mos ravishda tanlash.	Har bir rivojlanish bosqichiga mos vazifalarni belgilash orqali ta'lim samaradorligini oshiradi.
Individual yondashuv	Bolaning yoshi, qobiliyati, qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olish.	Shaxsiy imkoniyatlarga mos ta'lim berish orqali kommunikativ faollikni kuchaytiradi.
Nutqning psixik rivojlanish bilan bog'liqligi	Nutqni diqqat, xotira, tafakkur, idrok va emotsional-irodaviy rivojlanish bilan uyg'un rivojlantirish.	Kommunikativ faoliyatning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi va nutqdan samarali foydalanishga yordam beradi.

Bolaga muayyan mavzu bo'yicha savollar berishni o'rgatishda ko'rgazmali yordam sifatida savol so'zlari yozilgan kartochkalardan foydalanish mumkin:

- NIMA?
- KIM?
- NIMA QILYAPTI?
- QAYERDA?
- QACHON?

Differensial yondashuv tamoyili pedagogik korreksiya tashkil etishda qo'llaniladigan metodlar, usullar va shakllarni autizmli bolaning kommunikativ ko'nikmalari shakllanish darajasiga qarab tanlash zarurligini ko'rsatadi. Ushbu tamoyilga rioya qilish uchun boladagi kommunikativ ko'nikmalar darajasi diagnostik baholash metodikalar yordamida aniqlanishi kerak.

Turli darajadagi bolalar uchun korreksion ish mazmuni ham turlicha bo'ladi. Kommunikativ ko'nikmalari past darajada rivojlangan bolalar o'z ismi aytilganda javob berish, salomlashishga javob qaytarish kabi ko'nikmalarga o'rgatiladi; o'rta darajadagi bolalarda "Kim bu?", "Nima qilyapti?" kabi oddiy savollarga javob berish ko'nikmalari shakllantiriladi; yuqori darajadagi bolalarda esa "Sen nima qilmoqchisan?", "Sen nima qilding?" kabi murakkab savollarga javob berish o'rgatiladi.

Nutqning psixik rivojlanishning boshqa tomonlari bilan bog'liqligi tamoyili nutq shakllanishi boshqa psixik jarayonlarning holatiga bog'liqligini ochib beradi. Ushbu tamoyil nutqiy kommunikatsiya rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularga ta'sir etish zarurligini ko'rsatadi.

Emotsional-irodaviy sohaning, ixtiyoriy diqqatning, bilish faoliyatining rivojlanishi og'zaki (verbal) kommunikatsiya ko'nikmalarining shakllanishiga yordam berishi mumkin. Bunday holatda barcha ushbu psixik rivojlanish sohalariga bir vaqtda ta'sir ko'rsatish zarur bo'ladi, bu esa nutqiy kommunikatsiyaning shakllanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Individual yondashuv tamoyili autizmli bolalarning kommunikatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik korreksiya jarayonida ularning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish zarurligini anglatadi.

O'qish ko'nikmalariga ega bo'lmagan bolalar bilan ishlashda og'zaki ko'rsatmalar yoki rasm (tasvir) ko'rishidagi yordamdan foydalaniladi. O'qish ko'nikmalari shakllangan bolalar bilan esa o'qitish jarayonida yozma nutq shaklidagi ko'rsatmalar qo'llaniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u maxsus tashkil etilgan korreksion-pedagogik ishlarni talab qiladi. Ushbu jarayonning samaradorligi kompleks ta'sir, tizimlilik, oddiydan murakkabga o'rgatish, ko'rgazmalilik, differensial va individual yondashuv tamoyillariga amal qilinishiga bevosita bog'liqdir. Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning muloqotga kirishish, o'z ehtiyojlarini ifodalash, savol berish va dialogni davom ettirish kabi muhim kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ota-onalar va mutaxassislarning hamkorligi hamda bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olish kommunikativ rivojlanishning barqarorligini ta'minlaydi. Shu bois autizmli bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar ilmiy asoslangan tamoyillarga tayangan holda izchil va maqsadli ravishda tashkil etilishi zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лебединская К.С. Детский аутизм. - М.: Просвещение, 1989. - 95 с.
2. Морозова Т.И. Методические рекомендации по коррекции нарушений речевого развития при детском аутизме // Аутизм: методические рекомендации по психолого-педагогической коррекции / Под ред. С.А. Морозова. - М., 2001. - С. 102-131.
3. Никольская О.С., Баенская Е.Р., Либлинг М.М. Аутичный ребенок: Пути помощи. - 4-е изд., стер. - М.: Теревинф, 2007. - 288 с.
4. Нуриева Л.Г. Развитие речи у аутичных детей: методические разработки. - 3-е изд. - М.: Теревинф, 2007. - 112 с.
5. Питерс Т. От теоретического понимания к педагогическому воздействию: книга для педагогов-дефектологов / Пер. с англ. М.М. Щербаковой; под науч. ред. Л.М. Шипицыной, Д.Н. Исаева. - М.: Владос, 2002. - 240 с.
6. Федоров А.П. Когнитивно-поведенческая психотерапия. - СПб.: Питер, 2002.
7. Хаустов А.В. Практические рекомендации по формированию коммуникативных навыков у детей с аутизмом: учебно-методическое пособие / Под ред. Т.В. Волосовец, Е.Н. Кутеповой. - М.: РУДН, 2007. - 35 с.
8. Хаустов А.В. Исследование коммуникативных навыков у детей с синдромом раннего детского аутизма // Дефектология. - 2004. - № 4. - С. 69-74.
9. Хаустов А.В. Основные этапы и особенности развития игровой деятельности в норме и при аутистических нарушениях // Аутизм и нарушения развития. - 2004. - № 3. - С. 18-24.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.